

MADHIYANI- KUYLAYLIK” BAYRAM DASTURI

Maqsad: Bundan ___ yil muqaddam «O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi» qabul qilingan edi. Qisqa vaqt ichida O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi dunyoda eng xaqchil, adolatli so‘zlar majmuasi sifatida tan olindi. Bolalarga kichik yoshlaridan boshlab ularni o‘rgatib borish bugungi kunning asosiy talablaridan hisoblanadi. Chunki o‘z haq-huquqini, erkinlik va burchlarini yaxshi bilgan har bir yosh hur fikrli, irodali va mas’uliyatli bo‘lib ulg‘ayadi.

1-boshlovchi: *Shukrona aytamiz qutlug’ kunlarga,
Ma’noga, mazmunga to’liq kunlarga.
Farovon, nurafshon ulug; kunlarga,
Ey, ozod diyorim – O‘zbekistonim!
Ey, ozod diyorim – O‘zbekistonim!*

2-boshlovchi: *Yangi davrv keldi, o’zgardi zamon,
Zamon zayli bilan o’zgardi inson.
O’zgardi jamiyat, o’zgardi hayot,
O’zgardi qo’shig’-u o’zgardi hayot!*

1-boshlovchi: Mustaqil diyor - xazonsiz bahor.
 Bir munavvar kelajagi bor.

2-boshlovchi: Ey, bugun bag'rimda chandon yig'lagan
Dardlarda o'ktam ming imkon tug'ildi
O'tmishni, ertamni suygan, alqagan
Mustaqil elimda yorug' yo'l endi!

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, tadbirimizda ishtirok etayotgan aziz, ota-onalar, davramizga fayz qo'shib turgan hurmatli ustozlar va bilimga chanqoq o'quvchilar. Mana, bu kun yurtimizda katta tantana, chunki 10- dekabr O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi qabul qilingan kun.

2-boshlovchi: O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi O'zbekistonda yashab turgan barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi va burchlarini belgilab beradi.

« Vatan » *qo'shig'i kuylanadi.*

1-o'quvchi: Qani menga ayt oshnam 10- dekabr qanaqa kun?

2-o'quvchi: 10-dekabr madhiya qabul qilingan kuni kim ham bilmaydi buni

1-o'quvchi: O'z haqqi-huquqingni bilasanmi, o'rtoqjon?

Aytchi Madhiyamiz qabul qilingan qachon?

3-o'quvchi: (qo'lida zarhal harflar bilan

O'zbekiston Respublikasi

Madhiyasi deb yozilgan kitob.

Bu kitobda hammasi

To'liq yozilgan bayon

O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi 1992 yil 10-dekabr kuni qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Shoir Abdulla Oripov va Mutal Burxonov tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Madhiyasida o'lkamizning

1- yoshlar ular hoxlagandek farzandlar bo'lib yetishishga va'da beramiz.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ham yoshlar, keksalar uchun va jamiki xalq uchun koplak ishlarni amalga qisqa muddatlarda amalga oshirmoqdalar. Shu bilan birgalikda „Harakatlar strategiyasi, ni ishlab chiqib undagi vazifa va ishlarni yo'lga qo'ymoqdalar. (strategiya haqida o'quvchilar qisqa aytib beradilar.)

I.davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish. (Moviyrang-osmon va toza suv ramzi, buyuk A. Temur davlatining

bayrog'I rangi).

II.Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud xuquq tizimini yanada isloh qilish.

(Siyohrang-qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslik ramzi).

III.Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish.

(Tillarang-iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi).

IV.Iqtisodiyot sohasini rivojlantirish.

(Qizil rang-xayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi).

V.Xavfsizlik,diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik,o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.

(oq rang-tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi).

Aziz tengdoshlar! Yurtimizning barcha ramzlarini qunt bilan o'rganaylik va unga amal qilaylik.

Xalq idrokida bayroqning yuqori qismi O`zbekistonning doim moviy osmonini, bayroq o`rtasi xalqimizning oq ko`nglini va uning oq paxtasini, bayroqning tub qismi esa bizning cheksiz yashil dalalarimiz va tabiatimizni ifoda qiladi. O`n ikki yulduz-keng va behad

O`zbekistonimizning azaliy tariximizga sodiqligini bildiradi, yarim oy esa yurtimizning tarixiy an`analari bilan bog`liq. Ayni paytda qo`lga kiritilgan mustaqilligimizdan darak beradi, bayroqdagi ikki qizil yo`l-mavjud birlik va buzilmas do`stlikka erishish uchun yurtimiz farzandlari qon to`kkanlariga ham ishora qiladi.

O`zbekiston Respublikasining Davlat bayrog`i mamlakat Prezidenti, Oliy Majlis, O`zbekiston hukumati, mahalliy davlat idoralari,

O`zbekistonning turli vakolatxonalarida ish olib borayotgan binolarda,

O`zbekistonning rasmiy delegatsiyalari qatnashayotgan xalqaro tadbirlarda ko`tariladi. Bu qoidalar alohida qonun asosida belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Davlat bayrog`iga nisbatan hurmatsizlik bildirgan shaxs yoki tashkilot belgilangan tartibda jazolanadi.

Bayroq haqida qo'shiqlar ijro etiladi.

2- boshlovchi: Muhtaram mehmonlar, tadbirimiz qatnashchilari! Konstitutsiyamiz zamirida insonlar hayoti, ularning kelajagi ko'zlangan. Bu ishlar muhtaram Birinchi Prezident bobomiz I.A.Karimov boshchiliklarida amalga oshirildi.

boshlovchi: shuning uchun Prezident bobomizga rahmat aytamiz,biz ularni doim yodda tutamiz.Oxiratlari obod bo'lsin biz

serquyoshligi xalqimizning bag`ri kengligi, ajdodlarimizning buyukligi va boy tariximiz va butun dunyoni lol qilgan buyuk ma`naviyatimiz madh etilgan.

Dunyoda bor turli ma`lumot,
Samolarda izlardi hayot.
Ming taxminu, ming bir gumonlar,
Berolmasdi biror ma`lumot.
Ne donolar quyoshga shoshdi,
Yulduzlarchi insondan qochdi.
Galileydan oldin Ulug`bek,
Falakiyot sirini ochdi.
Shundan tiniq, toza osmonim,
Ona yurtim – O`zbekistonim.

Komil Sindarov

1-o'quvchi: Ozod, erkinlikning

Ramzi - bu qo'shiq
Unda aks etgandir
Haq -huquqimiz
Yo'limiz yoritir
Misoli oftob
qo'lda baland tursa
Agar tug'imiz

4-o'quvchi: Millionlar taqdiri

Unda mujassam.
qomuslar-qomusi
Deydi xalqimiz.
Yer sharin yoritdi
O'zbekiston ham,
Yurtga fido bo'lsak,
Kular baxtimiz

5-o'quvchi: «Baxtimiz kitobimiz» qo'shig'ini kuylaydi

Hayotimiz qonuni
Baxtnoma kitobimiz
Olam-olam mazmunli
Baxtnoma kitobimiz
O'ylaydi yurt iqbolin
Baxtnoma kitobimiz
Ochdi yurtim jamolin
Baxtnoma kitobimiz
Yo'qlar o'zbek tilini
Baxtnoma kitobimiz
O'ylar elim baxtini
Baxtnoma kitobimiz

6-o'quvchi: Prezident bobomiz
Bizga g'amxo'r, mehribon
Yurt tinchligin ko'zlaydi
Xalq baxtidan so'zlaydi.

7-o'quvchi: O'zbekiston qo'ynida
Har bir tuman, viloyat
Kunga -kunga yashaydi



Sohibqiron Amir Temurning yurishlarida lashkar oldida uning tug'i- bayrog'i olib yurilgan.



Mustaqilsan onajon
Seni tan oldi jahon

Hamma: O'zbekiston - erkin, hur
To dunyo turguncha tur!
O'zbekiston onajon
Ne xizmat bo'lsa, buyur!

Hilpira, bayrog'im, hilpira mag'rur,

Ozod, hur xalqimga bag`sh etib surur.
Birlashgan millatlar koshonasida,
Hilpira bizlarga bag`sh etib g`urur.

Qadimdan ham jahon tarixida davlatlar mavjud ekanki, ularning ramzlari bo`lgan. Bu ramzlar mazkur davlat fuqarolariga go`yoki ruxsatnoma yoxud hujjat hisoblangan. Buyuk Amir Temur bobomiz davlat ramzlariga juda yuksak siyosiy ahamiyat berganlar. Jumladan, jang maydonida lashkardan bir nafari omon qolsa ham, u mamlakat bayrog`ini baland tutsin, deb farmon berganlar. Bayroqning egilishi mag`lubiyat belgisi deb qabul qilingan.

Har bir davlatning o`z bayrogi bo`ladi.

Kamol topar, tiklar qad

8-o`quvchi: O`zbekiston tayanchi

Qurolli kuchlari bor
U xalqning suyanchidir.
Dushman quturar bekor

9-o`quvchi: Mustaqil O`zbekiston dadil tutib o`zini,
Bormoqda o`z yo`lidan
Aytmoqda o`z so`zini.

10-o`quvchi:

Baxt berdi insonlarga

Onajon O`zbekiston
U yuz tutdi jahonga
Bo`ldi dovrug`i- doston

(«Lazgi» kuyi yangrab, raqs ijro etiladi)

Topshiriq:

Madhiya matnini ketma-ket to`g`ri joylashtiring

Yashnagay to abad ilmu-fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Serquyosh hur o`lkam, elga baxt, najot,

Sen o`zing do`stlarga yo`ldosh, mehribon!

Ajdodlar mardona ruhi senga yor!

Oltin bu vodiylar – jon O`zbekiston,

Ulug` xalq qudrati jo`sh urgan zamon,

Olamni mahliyo aylagan diyor!

Haqsevar, ona yurt, mangu bo`l obod!

Bag`ri keng o`zbekning o`chmas iymoni,

Erkin, yosh avlodlar senga zo`r qanot!

Istiqlol mash`ali, tinchlik posboni,

Ulug` xalq qudrati jo`sh urgan zamon,

Oltin bu vodiylar – jon O`zbekiston,

Ajdodlar mardona ruhi senga yor!

Olamni mahliyo aylagan diyor!

O`quvchi: Lug`at ustida ishlash.

Madhiya –kishi,narsa,biror voqea maqtab yozilgan she`r,nutq.

Najot-zarur yordam
to abad-umrbod,hamisha

mangu-abadiy

“SWOT” texnologiyasi

S-Kuchli tomoni: O`quvchilarni davlatimiz madhiyasini hurmat qilishga undash.

W-Kuchsiz tomoni: Haddan tashqari ko`p ijro ,behurmatlikka olib keladi.

O-Imkoniyat: Tadbir, dars va boshqa yig`ilishlarda foydalanish.

T-Taahdid: Layoqatsizlik, beparvolik

O`quvchi: O`zbekiston, onajon

Mustaqilsan, erkin, hur
Baxt quyoshi istiqlol
Boshing uzra sochgay nur.
Ey, o`zbeklar vatani
To dunyo turguncha tur.

O`quvchi: Tarixing juda uzoq

Ildizing juda chuqur SHirog`u,
Jaloliddin Farzandlaring mardu, jasur
Lol qoldirgan dunyoni
Jahongir bobom Temur.

O`quvchi: Darding ko`p boshing uzra
Tinmadi hech jang, ur-sur
Ulug`beklar nomingni
Jahonga qildi mashhur
Bir umr seni qo`msab

Sog'inib o'tdi Bobur

o'quvchi:

Onajonim baxtinga

Istiqlol bo'ldi shukur

O'zin tanib O'zbeklar

Uyg'ondi milliyg'urur

O'z gerbing o'z madhiyang

Tug'ing xilpirar mag'rur



o'quvchi: 41-modda- Har bir fuqaro bilim olish huquqiga ega.

O'quvchi: 49-modda - Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini avaylab-asrashga majburdirlar.

O'quvchi: 50-modda - fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

O'quvchi: 66-modda - Voyaga etgan, mehnatga layoqatli fuqarolar o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Hamma: Konstitutsiyamizni o'rganish burchimizdir. («Ouvnoqlar qo'shig'i» kuylanadi)

O`qituvchi : Bolalar bugun biz sizlar bilan O`zbekiston Respublikasi madhiyasi mualliflari bilan chuqurroq tanishamiz. “Madhiya”so`zi – Madh so`zidan kelib chiqqan bo`lib, maqtov, ulug`lash sharaf ma`nolarini bildiradi.Har bir davlatning madhiyasida o`z xalqi, yurti va milliy boyliklarimi madh etilgan. Madhiyamiz matni O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oropov qalamiga mansub bo`lib, shoir unda yurtimizning go`zalligi va boyliklarini juda zo`r ta`riflagan. Sizlar bilan bugun Abdulla Oripov va Mutal Burhonov hayoti va ijodi bilan tanishamiz.A. Oripov 1941 yilda Qashqadaryoda tug`ilgan. O`rta maktabni a`lo baholarga tugatib, Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakultetiga o`qishga kirdi. Oliygo`hni muvaffaqiyat bilan tugatib, Yozuvchilar uyushmasida mehnat faoliyatini boshladi.Yillar davomida shoirning bir qancha she`riy to`plamlari bosilib chiqa boshladi . Bu to`plamlar xalqimizni Vatanga, insonlarga mehr- muhabbatli bo`lishga, tabiatni sevish va ardoqlashga, imonli va vijdonli kishilarni ulug`lashga o`rgatdi. Hozirgi kunda Abdulla Oripov Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti hamda, “O`zbekiston Qahramoni” degan yuksak unvon egasidir.

Men nechun sevaman O`zbekistonni,
Tuprog`in ko`zimga aylab to`tiyo.

Nechun Vatan deya ona xalqimni
Muqaddas atayman , atayman tanho. Deb boshlangan she`rlari har bir o`zbek farzandining qalbidan mehr va faxr ila joy olgan.

Mutal Burxonov-musiqqa qiziqish uyg`onganda 5-6 yoshli bola eda.Otasi va amakisini yo`qlab musiqachi do`stlari tez-tez ularning uylariga yig`ilib turishardi.Hovlilarida tonggacha musiqqa ,kuy- qo`shiq yangrab turardi. Kichkinagina Mutalning bu qiziqishini ko`rgan amakisi uni “kichkina sozanda ” deb , unga tanbur sovg`a qilibdi.Tanburdan chiqayotgan navolar shunchaki qiziqish emas, balki uning doimiy mashg`ulotiga aylanib qoldi.

Yillar o`tib “Ozbekiston xalq artisti” unvoniga ega bo`lish va har tong o`zbek xalqini tantanavor bir qo`shiq bilan uyg`otish ulkan baxt edi.O`zbekiston madhiyasi dunyodagi eng yoqimli madhiyalar safidan o`rin egalladi. Bu muvaffaqiyatga erishishning sababi o`zbek xalqi ohanglarini yaxshi bilganidan va chuqur musiqavriy bilimga ega bo`lganligidan edi. Davlat madhiyasi Mutal Burxonovni yashashga, kurashga, el-u –yurt manfaati uchun xizmat qilishga undadi.

III Yakuniy qism : Bugun ijodlari bilan tanishgan shoir va bastakorning she`r va qo`shiqlaridan namunalar topib kelish vazifasi topshiriladi.

Yozgin , dedilar.

Shoir bir she`rida kuyladi gulni

Uni o`qiganlar :-Takror ! –dedilar .

A. Oripov

Nahot odamlarda so`ngan aqida,

Nahot she`r yo`lidan ozgin , dedilar.

Yana bir she`rida yozdi bulbulni,
Yani ham: Bu –eski ash`or ,-dedilar.
Shoir kunlarini uladi tunga,
Borliqni vasf etib, ayladi xonish.
Parvo qilmadilar baribir unga ,
Dedilar:-Bu gaplar hammasi tanish.

Shoir she`r yozgandi Ona haqida
Yozaver dedilar, yozgin !- dedilar.

Shu bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi
O`quvchi: O`zbekiston

Konstitutsiyasi haqida ma'lumot beriladi.

Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo`lim, 26-bob, 128 ta moddadan iboratdir.

O`quvchi: 1-modda - O`zbekiston suveren - Demokratik Respublika. «O`zbekiston Respublikasi» va O`zbekiston degan nomlari bir ma`noni anglatadi.

O`quvchi: 4-modda- O`zbekistonda Davlat tili - o`zbek tilidir.

O`quvchi: 5-modda - O`zbekiston Respublikasi qonun tasdiqlanadigan o`z davlat ramzlari - bayrog`i, gerbi va madhiyasiga ega.

O`quvchi: 6-modda- O`zbekiston Respublikasining poytaxti- Toshkent shahri.

O`quvchi: 24-modda: yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir.

O`quvchi: 37-modda- Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko`rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir.

O`quvchi: 40-modda- Fuqarolar tibbiy malaka xizmatidan foydalanish huquqiga ega.